

# **CHORVA HAYVONLARINI BO'RDOQILASH DAVRINING MUHIM JIHATLARI VA ULARGA E'TIBOR BERISHNING ASOSIY JIHATLARI.**

**Tleubayeva Z.S., Karamatdinova N., O'rubaeva N.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya.** Chorva hayvonlarini bo'rdoqilash davri va ularga e'tibor berishning asosiy jihatlari, qishloq xo'jaligida chorva mollari yetishtirish va ularni samarali boqish-boshqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu davrda chorva hayvonlarining sog'lig'i, naslchilik sifatini oshirish va ularni parvarishlash texnologiyalari bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinishi kerak. Bo'rdoqilash jarayonida hayvonlarning genetik resurslarini saqlash va rivojlanirish, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolash usullari, muloqot va yem-hashak, suv ta'minati kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada chorva hayvonlarini bo'rdoqilash jarayonida e'tibor berish zarur bo'lgan asosiy jihatlar, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishi uchun qilinishi kerak bolgan ishlar haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar.** naslchilik, bo'rdoqilash, Klyuver - Shtraux uslubi, qoramolchilik, Froveyn usuli, qoramollarning tirik vaznnini o'lchash, molxona qurish.

**Kirish.** Qoramollardan bo'rdoqilashdan asosiy maqsad eng yuqori samaradorlikka erishish. Bo'rdoqilashdan foyda olish uchun qoramollarni parazitlarga qarshi dorilash va emlash, chorvamollarining tana vaznnini doimiy tarzda tekshirib turish, tana vazniga qarab guruhlarga ajratish va guruhlarga qarab oziqlantirish, yuqori darajadagi energiya va oqsilli (proteinli) ozuqalar bilan oziqlantirilishi kerak. Doimiy tarzda xo'jalikda mavjud bo'lgan ozuqalar bilanchorva mollarini bo'rdoqilash doim ham samara bermaydi. Bunday bo'rdoqilash yo'li faqatgina chorvador uchun mehnat qiymati va ozuqadan olinadigan foyda ko'rinishida qolishi mumkin.

**Asosiy qism.** Chorvador iqtisodiy samaradorlik va foyda ko'rishi uchun bo'rdoqilashni boshlashdan oldin quyidagi jihatlarni hisobga olishi kerak:

Chorva mollarini parvarish qilayotgan xonodon oila a'zolari har yili tibbiy ko'rikdan o'tishlari, yuqumli kasallikkarga qarshi emlash muolajalarini (kasallik hayvonlardan insonlarga yuqmasligi uchun) olishlari zarur.

Chorva hayvonlarini parvarishlashning asosiy sharti ularni o'z vaqtida va uzuksiz oziqlantirishdir (og'ilxonada parvarishlash davrida mollar yozda tayyorlangan ozuqa bilan boqiladi). Ikkinchi muhim shartlaridan biri – zarur gigienik parvarishlashdir. Bu hayvonning tirik vaznnini saqlab qolishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Qoramolni boqishda avvalo, bu mol qaysi maqsadda boqilayotganligiga e'tibor qaratilishi lozim. Agarda suti uchun boqilayotgan bo'lsa, ratsionida maydalangan ko'k o't, pichan, lavlagi, sifatli konsentrat yem bo'lishi kerak. Agar mol bo'rdoqiga boqilayotgan bo'lsa ratsionida ko'p miqdorda konsentrat (kepak, yem, shrot va boshqalar) bo'lishi shart. Boqilayotgan mol kam harakat qiladigan holatda bo'lishi kerak.

Qoramollarni saqlash xonalari, ya’ni og‘ilxonalar keng, yorug‘ va havo almashishi uchun romlar bo‘lishi kerak. Molxona yaxshi ta’mirlangan, devorlari, oxuri ohak bilan dezinfeksiyalangan, barcha teshik-tirqishlar yopilgan bo‘lishidarkor. Og‘il yaxshi shamollatiladigan, siydk oqib ketadigannov bo‘lishi lozim. Iloji bo‘lsa mollarni har kuni, bo‘lmasa, ifloslanganda tozalab, qashlab turish darkor. Buning uchun qashlagichdan foydalaniladi.

Molxona qurishda me’yorlarga rioya qilish lozim. Sigirlar uchun og‘ilxona uzunligi 170-200 sm, kengligi 140-160 smdan kam bo‘lmasligi kerak. Oxur pastroq bo‘ladi – mollar bo‘ynini egib, ammo cho‘zilmasdan oziqlanishi kerak. Oxurni, yaxshisi to‘g‘ri burchakli emas, ovalsimon qilib, ya’ni tepe tomoni sakson santimetр past qismi ellik santimetrdan kam bo‘lmagan kenglikdaqurish kerak. Uning hajmi bir marotabalik ozuqa sig‘adigan bo‘lib qolmasligi, bo‘rdoqiga boqilayotgan mollarning suvi oldida bo‘lgani ma’qul.

Bo‘rdoqilashga olinadigan chorva mollarining zotlariga, yoshiga, tana vazniga, tana tuzilishiga va nasligaqarab tanlab olinishi kerak. Ya’ni semirtirishga eng maqulbo‘lgan chorva mollarini sotib olish kerak.

Yetarli darajada dag‘al va konsentratli ozuqalar bilan zaxiralari bilan ta’minlanishi va bu ozuqalar sifatli va to‘g‘ri saqlanishi kerak.

Chorva mollariga beriladigan ozuqalar yuqori energiya va proteinga ega bo‘lgan ozuqalar norma va ratsionlar asosida berilishi kerak. Chorvador oziqlantirishda muvozanatlashtirilgan ratsionlar tuzishi zarur.

Boqishdan oldin chorva mollari tarozida tortilishi, tana vazni bir-biriga yaqinlari guruhlarga ajratilishi va tanavazniga ko‘ra oziqlantirilishi darkor.

Bo‘rdoqilash davrida chorva mollari har oyda birmarotaba tirik vazni tarozida o‘lchanishi yoki tarozida tortish imkonini bo‘lmaganda o‘lchov lentasi yordamida gavdasining qiya uzunligi va ko‘krak aylanasi, yelka suyaklari orqasidan o‘lchov lenta bilan o‘lhash orqali amalga oshiriladi. Klyuver - Shtraux uslubida ham katta yoshdagi mollarning tirik vazni aniqlanadi. Buning uchunmollarning ko‘krak aylanasi va tananing qiya uzunligi o‘lchamlari olinadi.

So‘ngra maxsus ishlab chiqilgan jadvallar yordamidatirik vazni aniqlanadi. Jadvalda keltirilgan raqamlar o‘rtacha semizlikdagi mollar uchun belgilangan. Shuning uchun mollarning semiz yoki oriqligiga qarab jadval yordamida ularning topilgan vazni 5-10% ga oshiriladi. O‘rtadan pastsemizlikdagi mollar vazni esa 5-10% ga kamaytiriladi.

Qoramollarni tirik vaznini aniqlash. Froveyn usulida yosh mollarning tirik vazni aniqlanadi. Bu usulda ham mollarning ko‘krak aylanasi va tananing qiya uzunligi o‘lchamlari olinadihamda maxsus jadvallardagi ko‘rsatkichlar yordamida tirik vazni topiladi (1-jadval).

Chorva mollari boqishga olinar ekan, ozuqaning qachon tugashi yoki vaqt jihatidan yoki eng yaxshisi, chorvaning tanaog‘irligiga qarab hisoblab chiqish kerak. Boshqacha qilib aytganda, oziqlantirish muddatini qisqartirib, semirish muddatini uzaytirilmasligi kerak.

## 1-Jadval

### Klyuver - Shtraux usulida qoramollarning tirik vaznini aniqlash

Kypak orti ko'krak aylanasi, sm	Gavdasining qiya uzunligi, sm														
	125	130	135	140	145	150	155	160	165	170	175	180	185	190	195
12 5	164														
13 0	180	187													
13 5	196	203	213												
14 0	216	223	231	241											
14 5	232	240	250	259	269										
15 0	247	256	266	277	286	296									
15 5	264	274	285	295	296	317	328								
16 0	282	290	301	313	324	334	347	350							
16 5		310	323	334	347	358	370	381	394						
17 0			342	355	368	380	398	404	417	431					
17 5				374	390	403	417	429	443	457	470				
18 0					414	428	443	452	471	486	500	515			
18 5						449	464	478	494	508	524	540	552		
19 0							492	506	522	538	555	572	585	602	
19 5								531	549	566	582	600	615	629	648
20 0									580	597	614	634	649	667	684
20 5										626	644	662	680	690	717
21 0											678	699	716	736	754

**Xulosa.** Chorva hayvonlarini bo'rdoqilash, ya'ni ularni yaxshilash va rivojlantirish, qishloq xo'jaligining muhim qismi hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat chorvachilikning samaradorligini oshirish, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash,

iqtisodiy rivojlanish va qishloq joylarining ijtimoiy farovonligini yaxshilash uchun ham muhimdir. Bundan tashqari qishloq aholisining chorvachilik bo'yicha bilimlarini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, davlat tomonidan chorvachilikni rivojlantirish uchun qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish, subsidiya va boshqa qo'llab-quvvatlashlar ko'rsatish, hayvonlarni bo'rdoqlash jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, masalan, genetik modifikatsiya yoki yangi parhezlarni qo'llash orqali natijalarni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. 2019 yil 28 martdag'i «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5696-son farmoni
2. Mirziyoyev Sh. 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 - son farmoni.
3. Mirziyoyev Sh. 2017 yil 16 martdag'i "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2841-son qarori.
4. Turkiya Respublikasi "Oziq-ovqat qishloq xo'jaligi vazirligi" hamda "Denizbank" hamkorligida tayyorlangan "100 takitob"dan iborat to'plami.
5. Nosirov U.N., Maqsudov I., Dosmuxamedova M.X. O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari. – Toshkent, 2016.
6. Hamraqulov R., Karibaev K. Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish. – Toshkent, 1999.
7. Hamidov X.A., Kats M. Dehqon xo'jaliklarida qoramol-larni parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha amaliytavsiyalar. – Toshkent, 2011.
8. Hamidov X.A. Veterinariya amaliy maslahatlar. – Toshkent, 2011.

## **ГҮШТ ВА СУТ ЙУНАЛИШИДАГИ ҚОРАМОЛЛАРГА ОЗУҚА ҚИЙМАТИНИНГ ТАЪСИРИ**

**Тлеубаева З.С., Есхожаева Ж.Е., Омарова М.Е.**

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали

**Аннотация.** Республикада аҳоли жон бошига қорамоллар 0,38 бошдан, сут ишлаб чиқариш 197 килограммдан ва гўшт 21 килограммдан тўғри келмоқда. Медицина нормасига нисбатан таъминлаш 2,64 ва 4,0 бараварга кам. Демак, чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш мустақиллигига эришишдек устувор вазифа ўз ечимини кутмоқда. Инсон организими кунига 30 грамм гўшт оқсилига эҳтиёж сезади. Бу эҳтиёжни асосан гўшт ва гўшт маҳсулотлари орқали қондиради. Етиштирилаётган гўшт маҳсулоти асосан қорамоллардан олинади.

**Калит сузлар.** Чорвачилик, иқтисодий, фермер, ислохотлар, гўшт, қорамолчилик, хомашё, дехқон, сут, тери